



ЭЛЕКТРОН ХУЖЖАТ ВА ЭЛЕКТРОН ХУЖЖАТ
АЛМАШИНУВИ

Ilmiy rahbar: Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya fakulteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrası assistenti

Abdullayev Abbosjon Xasanboy o'g'li

Xolmatova Jumagul. Elektron hujjat va elektron hujjat almashinuvi

Adhamova Mubina

Yusupova Maftuna

*Холматова Жумагул. Электронный документ и электронный
документ оооборот*

Адхамова Мубина

Юсупова Мафтуна

*Xolmatova Jumagul. Electronic document and electronic document
management*

Adhamova Mubina

Yusupova Maftuna

Annotatsiya: Elektron hujjat aylanishining zamonaviy tizimlarini qo'llash, axborot sohasidagi o'zaro hamkorlik darajasi va sifatini, katta hajmlardagi axborotni topish, qayta ishlash, foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarining tezkorligi hamda yuqori sifatini ta'minlash, hamkorlikdagi harakat jarayonini soddalashtirish va ularni amalga oshirish vaqtini qisqartirish orqali har qanday tashkilot hamda kompaniyada ish unumdorligi va samaradorligini oshirish mumkin, birinchi prezidentimiz I.A Karimov ta'kidlaganlaridek "...siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim"



Elektron hujjat aylanishi xizmatlariga ayniqsa, elektron hukumat va elektron tijoratni rivojlantirishda ehtiyoj sezilmoqda. Bunday sharoitda elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada elektron axborot almashish jarayonining o'zi zamonaviy talablarga javob berishi lozim.

Respublikamiz miqyosida elektron xujjat almashinuvi tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun ahamiyatli bo'lgan nazariy, uslubiy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, to'plangan ilmiy ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tavsiyalar respublikamizning elektron xujjat almashinuvi bo'yicha dasturiy maxsulotlarni ishlab chiqaruvchi tizimlarda qo'llanilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: Xujjat, ye-hujjat, imzo, muxr, elektron raqamli imzo

Используя современные системы электронного документооборота, уровень и качество сотрудничества в области информации, эффективность принятия решений, упрощение управленческих решений и это может повысить производительность и производительность в разных организаций и компании, подчеркнул Президент И.Каримов. «Процессы политической модернизации более важная роль в современных информационных и коммуникационных технологиях в необходимости широкого использования государства и общества».

Услуги электронного документооборота необходимы, в частности, для развития электронного правительства и электронной торговли. В этих условиях внедрение системы электронного документооборота имеет первостепенное значение. Процесс электронного обмена информацией должен соответствовать современным требованиям.

Он может служить теоретической, методологической и практической основой для развития и повышения ее эффективности в стране. Кроме того, накопленные научные данные, выводы и практические



рекомендации могут быть использованы в системе электронного документооборота Республики Узбекистан.

Ключевые слова: документ, электронный документ, подпись, печать, электронная цифровая подпись

Using modern electronic document management systems, the level and quality of cooperation in the field of information, the effectiveness of decision-making, simplification of management decisions and this can improve productivity and productivity in different organizations and companies, President Islam Karimov underlined. "The processes of political modernization are more important in modern information and communication technologies in the need for widespread use of the state and society."

Electronic document management services are necessary, in particular, for the development of e-government and e-commerce. In these conditions, the introduction of the electronic document management system is of paramount importance. The process of electronic exchange of information must meet modern requirements.

It can serve as a theoretical, methodological and practical basis for the development and enhancement of its effectiveness in the country. In addition, the accumulated scientific data, conclusions and practical recommendations can be used in the electronic document management system of the Republic of Uzbekistan.

Key words: document, electronic document, signature, seal, electronic digital signature

Hujjat - matn, tovush yoki tasvir shaklida yozilgan axborot bo'lib, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy obyektidir.

Hujjat turlari – hujjatlarni o'z shakliga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Matnli hujjatlar. Qog'ozga yozuv mashinasi, qo'l yoki axborot kommunikatsiya vositalari yordamida tushirilgan qandaydir ma'no beruvchi so'zlar ketma-ketligidir.



Tovushli hujjatlar. Ovoz yozish vositalari yordamida yozib olingan tovushli axborot.

Tasvirli hujjatlar. Fotosurat, rang tasvir mahsuli.

Elektron hujjat O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi.

Elektron shaklda qayd yetilgan, Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma'lumotlarga) ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok yetish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Odatda hujjatlarni an'anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o'ynaydi. Chunki pochta xizmatining asosiy vazifasi jo'natmalarni o'z manzillariga yetkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo'limiga topshiriladi. Shundan so'ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo'natiladi va yetkaziladi.

Elektron hujjatlarni almashish tizimi yesa an'anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qilinadi. Bunda hujjat elektron ko'rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog'i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (YE-hujjat) yoki elektron pochta xizmatidan foydalaniladi. Elektron hujjat almashish tizimlarida hujjatlarni uzatish juda tezkor amalga oshiradi.

Imzo – hujjatning haqiqiyligini va yuborgan jismoniy shaxsga tegishli yekanligini tasdiqlaydigan insonning fiziologik xususiyati. Imzo orqali insonning shaxsi hamda u yozgan hujjatning haqiqiyligi aniqlanadi.



Muhr – hujjatning haqiqiylikini va biror bir yuridik shaxsga tegishli yekanligini tasdiqlovchi isbotdir. Muhrlar o‘zining alohida shakliga ega bo‘lib, asosan hujjatlarning va undagi imzolarning aslligini tasdiqlaydi.

Elektron raqamli imzo O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi 2003 yil 11 dekabrda 562-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta’riflanadi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Elektron raqamli imzo - xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining xaqiqiylikini tekshirishda qo‘llaniladigan va shaxs imzosini to‘laligicha o‘rnini bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan xujjatlarni va axborotlarni haqiqiylikini tekshirishda qo‘llaniladi.

Elektron raqamli imzodan muhr o‘rnida ham foydalanish ham mumkin, bunda faqat va faqat hujjatga tegishli elektron raqamli imzo hujjatdagi barcha o‘zgarishlarni yoki o‘zgartirishlarni ko‘rsatib beradi. Buning uchun elektron raqamli imzo yuridik shaxs nomiga, ya’ni kompaniya va tashkilotlar nomiga ruyxatdan o‘tkaziladi.

Elektron xujjatning rekvizitlari quyidagilardan iborat: elektron raqamli imzo; jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi; jo‘natuvchining pochta va elektron manzili; hujjat yaratilgan sana. Qonun hujjatlari asosida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvida boshqa rekvizitlar ham belgilanishi mumkin.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - bu faqat xujjat muallifiga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni hosil qilish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti bu elektron xujjatning kim tomonidan yuborilganligini aniqlash va uni haqiqiylikini



tasdiklashda qo‘llanilishi mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron sertifikatlar - bu sertifikatsiya tizimi qoidalariga binoan belgilangan talablarga ko‘ra elektron raqamli imzo vositalarining muvofiqligini tasdiqlash uchun hamda elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron raqamli imzoning ochiq kalitining elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ruyxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjat.

Elektron hujjat almashish tizimlari O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta’riflanadi va faoliyat yuritadi.

Elektron hujjat almashish tizimlari – elektron hujjatlarni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali jo‘natish va qabul qilish jarayonlari yig‘indisi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (shu jumladan shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin. Turli kompaniyalarning avtomatlashtirilgan tizimlari orasida standartlashtirilgan shakldagi ish hujjatlarining (buyurtmalar, hisob raqamlari va sh.k.) ma’lum shakldagi elektron almashinuvi elektron hujjat almashinuvi tizimini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida» gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron xujjat almashinuvi haqida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida” gi Qonuni.
4. Ayupov P. X. Windows operatsion tizimi: Asosiy tushunchalar. Amaliy mashklar. Standart programmalarG‘ P. X. Ayupov. -T, 2006. -132 b.
5. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari.- T.; 2000 -218 b.
6. «Kompyuter olami» S.S. Kosimov, A.A.Obidov - Chulpon nashriyoti – 2001 yil.
7. Abdukodirov A.A. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari
8. Назаренко Г.И., Гулиев Й.А.И., Ермаков Д.Е., «Медицинские информационные системы: теория и практика».



9. проф. М.Карабаев, Ассистент А.Абдуманнонов, Ст.преп. М.Ботиров
Медицинские информационные системы ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ.(учебно-методическое пособие) Фергана – 2011.
10. Гуломов С., Алимов Р. ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. -Т.: Шарқ нашриёти, 2000.
11. Юлдашев У., Бокиев Р., Зокирова.Ф. Информатика ва ахборот технологиялари. Электрон ўқув қўлланма. - Т, 2004.